



O'zbek geologiya qidiruv" AJ
Yagona aksiyadorining
2023-yil "05" 07 dagi
3-98 -son qaroriga
11-ILLOVA

**"O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV" AKSIYADORLIK JAMIYATI
IJROIYA ORGANI TO'G'RISIDAGI
NIZOMI**

Toshkent-2023

"Ўзбек геология кидирув" АЖ

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatni (keyingi o'rinnarda – Jamiyat) ijro etuvchi organining (Ijroiya organi) huquqiy maqomini, faoliyat tartibini, huquq va majburiyatlarini, shuningdek Ijroiya organi tomonidan qarorlar qabul qilish tartib-taomilini belgilaydi.

Jamiyatning Ijroiya organi deganda kollegial asosda boshchilik qiluvchi – Boshqaruva tushuniladi. Agar jamiyat ustavida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomalar shartlari Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

1.2. Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagagi PQ-101-son Qaroriga va Jamiyatning Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

II. JAMIYAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH TARTIBI

2.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik kollegial Boshqaruva organi – Boshqaruva tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqaruvi 6 (olti) kishidan iborat bo'lib, uch yil muddatga saylanadilar (tayinlanadilar). Boshqaruva raisi surunkasiga ikki muddatdan ortiq Boshqaruva raisi bo'lishi mumkin emas.

2.2. Boshqaruva raisi aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan, Boshqaruva raisi o'rindbosarlari Kuzatuv kengashi tomonidan saylanadilar (tayinlanadilar).

2.3. Boshqaruva raisi va uning o'rindbosarlari bilan mehnat shartnomasini Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

2.4. Jamiyat Boshqaruvi 6 kishidan iborat bo'lib, Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat boshqaruva raisi, uning o'rindbosarlari, tarkibiy tuzilmalari va xodimlari ichidan shakllantiriladi.

2.5. Jamiyat Boshqaruva raisi, uning o'rindbosarlari va a'zolarini tayinlash, qoida tariqasida, xorijiy menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amalga oshiriladi. Bunda Jamiyatning Boshqaruva lavozimlariga kamida 3 nafar malakali xorijiy mutaxassislar jalb qilinadi.

Jamiyat Boshqaruvi a'zoligiga saylanadigan nomzodlarga qo'yiladigan talab va tanlash (saralash) mezonlari Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Tanlov quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

A) Tanlov o'tkazish bo'yicha e'lon Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli davlat organi saytlarida, OAVda va Jamiyat veb-saytida beriladi. E'lon 10 kundan kam bo'limgan muddatga joylashtiriladi.

B) Kelib tushgan takliflar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, Boshqaruva a'zolari (o'rindbosaralari)ni saylash bo'yicha qaror Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Boshqaruva raisligiga nomzodlarni ko'rib chiqish va tanlash aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi (Yagona aksiyador)ga kiritiladi.

V) Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi (Yagona aksiyador) tomonidan Boshqaruva raisini saylash bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinadi.

2.6. Boshqaruv a'zoligiga tanlov o'tkazishda nomzodlar Kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi (Yagona aksiyador) roziliqi bilan tanlov o'tkazishda ishtirok etishlari mumkin.

III. BOSHQARUV VA UNING A'ZOLARI HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

3.1. Jamiat Boshqaruvining vakolatiga Jamiatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki Jamiat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

3.3. Jamiatning Boshqarubi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va Jamiat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini ta'minlaydi.

3.4. Jamiat Boshqarubi raisining huquqlari va majburiyatlar:

- o'z vakolatlari doirasida Jamiatning ishiga rahbarlik qilish;
- Jamiat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalash;

- Jamiat nomidan ishonchnomalarni berish;

- o'z vakolatlari doirasida, Jamiat nomidan bitimlar tuzish;

- xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarni tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;

- Jamiatning filiali yoki vakolatxonasi shtatlarini tasdiqlash va uning rahbarini tayinlash;

- Jamiatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar qabul qilish va ko'rsatmalar berish;

- Jamiat Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ishtirok etish;

- banklarda hisob raqamlar (milliy va xorijiy valyuta hisob raqamlar) ochish;

- Jamiatning bank va boshqa moliya xujjalari birinchi imzo vakolatiga ega bo'lish;

- davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

- Jamiat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rivoja qilinishini va ularning mehnatini muhofaza qilishni ta'minlash;

- o'z vakolatlari doirasida Jamiatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari hamda Jamiat ichki hujjalari rivoja qilish.

Jamiat Boshqarubi raisi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari, Jamiatning ustavi va me'yoriy hujjalari muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.5. Jamiat Boshqaruvining vakolatlari (huquqlari) va majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'z vakolatlari doirasida Jamiatning mol-mulki va pul mablag'lарini tassaruf etish;

- Jamiatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;

- Jamiatning ichki me'yoriy hujjalarni tasdiqlash, aksiyadorlar umumiyligilishining va Kuzatuv kengashining vakolatiga kiritilgan ichki me'yoriy hujjalarni tasdiqlash bundan mustasno;
- vakolatxonalar va filiallar uchun majburiy bo'lgan Jamiat Boshqaruvinining qarorlarini qabul qilish;
- Jamiatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqish, ularni bajarilishini nazorat qilish;
- Jamiatning vakolatli Boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;
- qonunchilikka muvofiq Jamiatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi va ishonchligini, hamda aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;
- Jamiatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjalarni Jamiatning yagona aksiyadori, Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi va Jamiat auditori talabiga ko'ra to'sqiniksiz taqdim etish;
- Jamiat mulkini begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, Jamiat ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarni (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda Jamiat kuzatuv kengashi bilan kelishilgandan keyin tuzish;
- qiymati 100 mln so'ngacha bo'lgan homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) to'g'risida qarorlarni, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda qabul qilish. Bunda homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlarni ular biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshiriladi;
- Jamiatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash;
- dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga hamda Jamiat ichki hujjalariiga rioya qilish;
- har qanday bitim tuzilishida yoki Jamiatga bevosita tegishli har qanday masalada muhim manfaatdorligi (to'g'ridan to'g'ri, bilvosita yoki uchinchi shaxslar nomidan) to'g'risidagi ma'lumotlarni Jamiat Kuzatuv kengashiga yetkazish;
- Jamiatning reputatsiya risklarini boshqarish;
- Jamiatning Boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari, mazkur ustav va Jamiatning me'yoriy hujjalariiga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.6. Boshqaruvi raisi va uning a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjalariiga va ushbu ustavga muvofiq Jamiat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

IV. JAMIYAT BOSHQARUVINING ISH TARTIBI

- 4.1. Jamiat Boshqaruvi majlislari zarur hollarda o'tkaziladi.
- 4.2. Jamiat Boshqaruvi majlislari kvorumi 75 foiz bo'lib, majislarni Boshqaruv raisi yoki ko'rib chiqilayotgan masalalarning tegishlilikcha uning o'rinnbosarlaridan biri o'tkazadi.
- 4.3. Boshqaruv majlislari bayonnomalari Jamiat Boshqaruvi kotibi tomonidan yuritiladi.
- 4.4. Boshqaruv majlislari bayonnomalari:
- 4.4.1. Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolariga ularning talabiga ko'ra;
- 4.4.2. amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar va organlarga (shu jumladan davlat organlariga) taqdim etiladi.

V. JAMIYAT BOSHQARUVI A'ZOLARINING JAVOBLARLIGI

5.1. Boshqaruv a'zolari o'z xuquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiatning manfaatlarni ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim. Boshqaruv raisi va uning a'zolarining harakati (harakatsizligi) natijasida Jamiat manfaatlari yetkazilgan har qanday zarar, ziyon, ularning oqibatida yuzaga keluvchi jarima, penya va boshqa majburiy to'lovlari uchun ushbu shaxslarning subsidiar javobgarligini ular bilan tuziladigan mehnat shartnomalarida ko'zda tutiladi.

5.2. Jamiat Boshqaruv a'zosi o'z ish faoliyati davrida Jamiatning mahsulotlarini sotish yoki xizmatlar taqdim etishda qiyinchilik tug'diradigan korxonalarini ta'sis etish yoki ta'sis etishda qatnashish xuquqiga ega emaslar. Boshqaruv a'zosi Jamiatda lavozimga tayinlanganda xuddi shunday korxonalardagi o'z ishtirokini to'xtatishi va bu to'xtatish to'g'risida Jamiat kuzatuv kengashini xabardor qilmog'i lozim.

5.3. Boshqaruv a'zosi Jamiat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim xaqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali Jamiatni xabardor etishi shart.

Jamiat Boshqaruv a'zosi affillanganligi O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni 9-bobining talablariga muvofiq aniqlanadi.

5.4. Jamiat Boshqaruv a'zosi o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi, natijasida unga yetkazilgan zarar uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, Jamiat ustaviga va mazkur Nizomga muvofiq yetkazilgan zararni koplash bo'yicha to'liq hajmda Jamiat oldida javobgardir.

5.5. Jamiatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

5.6. Jamiat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Jamiat Boshqaruv a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

VI. YAKUNIY QOIDALAR

- 6.1. Mazkur Nizom aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan etiboran kuchga kiradi.

6.2. Agap mazkur Nizomni biron bir qoidasi o'z kuchini yuqotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni tugatish uchun sabab bo'lmaydi.

6.3. Agap O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari yoxud Jamiyat ustavida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va Jamiyat ustavi qoidalari qullaniladi.

6.4. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan boshlab, avval aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan Jamiyat "Ijroiya organi tug'risida"gi nizom va unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar o'z kuchini yuqotadi.